



## O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

*PhD, dots. Ruzmetov Davron*

*Urganch RANCH texnologiya universiteti*

*ORCID: 0009-0002-2301-8636*

*[d.ruzmetov@utu-ranch.uz](mailto:d.ruzmetov@utu-ranch.uz)*

*Sabirova Hurriyat*

*Urganch RANCH texnologiya universiteti*

*ORCID: 0009-0009-6347-0230*

*[hurriyat.sobirova@gmail.com](mailto:hurriyat.sobirova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan huquqiy sharoitlar, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari hamda ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashdan iborat. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari, davlat dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosiy manba sifatida o'rganildi. Mamlakatda qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada keng shart-sharoit yaratish, ularning erkin faoliyatini ta'minlash va amalga oshayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar o'z aksini topgan. Tadqiqot davomida rasmiy statistika ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligidagi kichik biznesning qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish va iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilindi. Shu bilan birga, maqolada kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar, jumladan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, infratuzilma va logistika tizimidagi kamchiliklar ham yoritib beriladi. Tadqiqot yakunida qishloq xo'jaligida kichik biznesni yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy xulosalar va takliflar beriladi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, qishloq xo'jaligi, xususiy tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti, huquqiy asoslar, davlat qo'llab-quvvatlashi, bandlik, iqtisodiy rivojlanish.

## ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

*PhD, доц. Рузметов Даврон*

*Ургенчский технологический университет RANCH*

*Сабирова Хуррият*

*Ургенчский технологический университет RANCH*

**Аннотация.** В данной научной статье анализируется организационно-правовая база развития малого бизнеса и частного предпринимательства в сельском хозяйстве Республики Узбекистан. Основная цель исследования оценка правовых условий, созданных для малых хозяйств, действующих в аграрной отрасли, мер государственной

поддержки и их влияния на экономическое развитие. В качестве основных источников рассматриваются указы и распоряжения Президента Республики Узбекистан, государственные программы и нормативно-правовые акты, направленные на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства. Особое внимание в этих документах уделяется таким вопросам, как либерализация предпринимательской деятельности, упрощение процедур регистрации, предоставление налоговых и финансовых льгот, а также расширение механизмов льготного кредитования. Эти меры способствуют созданию благоприятной деловой среды для деятельности малых хозяйств. В ходе исследования на основе официальных статистических данных анализировались объемы производства, доля занятости и место малого бизнеса в сельском хозяйстве в экономике. Результаты показывают, что малый бизнес играет важную роль в обеспечении занятости, повышении доходов и увеличении производства продуктов питания в сельской местности. В частности, основную часть сельскохозяйственного производства обеспечивают дехканские хозяйства и малые предприятия. В то же время в статье освещаются некоторые проблемы, препятствующие развитию малого бизнеса, включая ограниченный доступ к финансовым ресурсам и недостатки в инфраструктуре и логистической системе. В заключение исследования приводятся практические выводы и предложения по дальнейшему развитию малого бизнеса в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** малый бизнес, сельское хозяйство, частное предпринимательство, деловая среда, правовая база, государственная поддержка, занятость, экономическое развитие.

## ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN

PhD, assoc. prof. **Ruzmetov Davron**  
Urganch RANCH Technological University  
**Sabirova Hurriyat**  
Urganch RANCH Technological University

**Abstract.** This scientific article analyzes the organizational and legal framework for the development of small business and private entrepreneurship in agriculture in the Republic of Uzbekistan. The main purpose of the study is to assess the legal conditions created for small business entities operating in the agricultural sector, support measures provided by the state, and their impact on economic development. The article examines the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, state programs, and regulatory legal acts aimed at the development of small business and private entrepreneurship as the main sources. These documents pay special attention to issues such as liberalization of entrepreneurial activity, simplification of registration procedures, provision of tax and financial incentives, and expansion of preferential lending mechanisms. These measures serve to create a favorable business environment for the activities of small business entities. During the study, the production volume, share of employment, and place of small business in agriculture in the economy were analyzed based on official statistical data. The results show that small businesses play an important role in providing employment, increasing incomes, and increasing food production in rural areas. In particular, dehqan farms and small enterprises provide the bulk of agricultural production. At the same time, the article also highlights some of the problems that hinder the development of small businesses, including limited access to financial resources, and shortcomings in the infrastructure and logistics system. At the end of the study, practical conclusions and proposals are made for the further development of small businesses in agriculture.

**Keywords:** small business, agriculture, private entrepreneurship, business environment, legal framework, state support, employment, economic development.

### **Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi tarmog'ida kichik biznes subyektlarining faoliyati aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish hamda ichki bozorni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan (Farmon, 2011).

Mustaqillik yillarida mamlakatda xususiy mulk ustuvorligini ta'minlovchi barqaror huquqiy baza yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlarida tadbirkorlik faoliyati uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, davlat boshqaruvi organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashuvini cheklash hamda ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu huquqiy choralar natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Qishloq xo'jaligi sohasida kichik biznes dehqon va fermer xo'jaliklari, kichik korxonalar hamda mikrofirmalar faoliyati orqali namoyon bo'lmoqda. Mazkur subyektlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy qismini ta'minlab, qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlar ham qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlikning ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, kichik biznesni rivojlantirish jarayonida moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, infratuzilma va logistika tizimidagi muammolar kabi ayrim iqtisodiy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda ko'pchilik kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bank kreditlariga kirish murakkab bo'lib, yuqori garov talablari va foiz stavkalari moliyaviy faoliyatni kengaytirishga to'sqinlik qilayotgani qayd etilgan (Astanaev, 2024). Shu sababli, qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini iqtisodiy jihatdan chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola aynan ushbu masalalarni yoritishga bag'ishlangan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, asosan, iqtisodiy va huquqiy omillarni tahlil qilishga, shuningdek, qishloq joylarida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Jumladan Oleksandr Shpykuliak, Mykola Malik, Svitlana Kravchenko, Lesia Zaburanna, Ishmuratova va boshqa olimlarning ishlarini ko'rsatish mumkin.

Xususan, Oleksandr Shpykuliak va boshqa xorijiy olimlar agrar biznes tuzilmalari, xususan kichik biznes subyektlarini qishloq xo'jaligida qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini o'rganadi. Institut iqtisodiyoti va tizimli yondashuv asosida, kichik biznesning barqarorligi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bozor sharoitlariga moslashuv tahlil qilingan. Tahlilda shuningdek davlat qatlamining rolini kuchaytirish, kredit tizimi, infratuzilmani mustahkamlash haqida fikrlar mavjud (researchgate, n.d.).

Mahalliy tadqiqotchilardan Ishmuratova (n.d.) O'zbekiston agrar sohasida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning asosiy yo'llarini tahlil qilgan. Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati: ish o'rinlari yaratish, oziq-ovqat xavfsizligi, raqobatbardoshlikni oshirish, davlat qo'llab-quvvatlashi ko'rib chiqiladi. Moliyaviy resurslarga kirish, yerdan foydalanish, texnologiya va kadrlar bo'yicha muammolar va takliflar berilgan.

Bu maqolalarda, qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida bir qator yondashuvlar taqdim etiladi. Xorijiy tadqiqotchilar biznesni rivojlantirishda davlatning ahamiyatini, iqtisodiy dasturlarni va huquqiy normativlarni

ta'kidlagan bo'lsa, mahalliy olimlar esa, O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olib, qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-chora-tadbirlarni ko'rib chiqadi. Ikkala yondashuv ham, qishloq joylaridagi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan huquqiy va iqtisodiy asoslarning muhimligini tasdiqlaydi va bu masalalar bo'yicha yanada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

O'zbekiston qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish va mavjud tizimning samaradorligini baholashdir. Bunda O'zbekistondagi kichik biznes subyektlarining faoliyati tahlil qilinadi va olingan statistik ma'lumotlar, kichik biznes subyektlariga ta'sir etuvchi tashkiliy va huquqiy omillarni baholash imkonini beradi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari O'zbekiston iqtisodiy adabiyotlarida muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ilmiy manbalarda kichik biznesning iqtisodiy o'sish, bandlik va aholi daromadlarini oshirishdagi roli, shuningdek, uning huquqiy va institutsional asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotchilar kichik biznesni, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida, bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy subyektlardan biri sifatida baholaydilar. Mahalliy ilmiy maqolalarda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotdagi ulush, bandlik darajasi hamda tarmoqlar kesimidagi hissasi oshib borayotgani ta'kidlanadi. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda kichik biznesning qishloq xo'jaligidagi ulushi yuqori bo'lib, dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish hajmining asosiy qismini ta'minlayotgani qayd etilgan. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda moliyalashtirish, infratuzilma va logistika bilan bog'liq muammolar kichik biznes salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida ko'rsatiladi. Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy asoslari Prezident farmon va qarorlarida aniq belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq va kredit mexanizmlarini soddalashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu huquqiy hujjatlar kichik biznesning iqtisodiy erkinligini kengaytirish va qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotda, shuningdek, rasmiy statistika ma'lumotlari muhim axborot manbai sifatida foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hajmi yil sayin oshib bormoqda, bu esa mazkur sohada kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi[5]. Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, statistik taqqoslash, huquqiy hujjatlarni o'rganish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari iqtisodiy jihatdan baholandi hamda amaliy xulosalar chiqarildi.

Qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish jarayoni O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining muhim natijalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada kichik biznes subyektlarining yuqori ulushi, avvalo, davlat tomonidan yaratilgan tashkiliy-huquqiy muhit va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari bilan bevosita bog'liq. Prezident farmonlari va davlat dasturlarida tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, soliq yukini kamaytirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning mutlaq ko'p qismi kichik tadbirkorlik subyektlari

hissasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq kichik biznes subyektlari sonining tez sur'atlarda o'sishi kuzatilgan bo'lib, 1991-1995-yillarda O'zbekistondagi kichik biznes subyektlari 4,5 baravardan ortiq miqdorda o'sgan bo'lsa, ulardagi ish bilan band bo'lganlar soni deyarli 2 baravar oshdi (Abdulxakimov, 2024). Xususan, 2023-yilda ushbu tarmoqda kichik biznesning ulushi 95 foizdan yuqori bo'lib, bu ko'rsatkich sanoat va xizmatlar sohasiga nisbatan ancha yuqoridir. Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligida kichik va o'rta biznes subyektlarining ulushi o'rtacha 40–60 foiz atrofida shakllangan. Bu holat O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosan mayda va oilaviy xo'jaliklar hisobiga olib borilayotganini ko'rsatadi. Statistik solishtirishlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning qishloq xo'jaligidagi yuqori ulushi bir tomondan aholi bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish samaradorligi va qo'shilgan qiymat darajasining pastligi muammosini yuzaga keltirmoqda. Masalan, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi yildan-yilga oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning eksportdagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat qayta ishlash sanoati va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda esa elektr energiyasi, internet, transport va logistika xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kichik va o'rta biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishiga jiddiy to'siqlik qilayotgan omillar sifatida ko'rsatiladi (Abdulxakimov, 2024). Shuningdek, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari masalasi ham muhim muhokama obyekti hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining katta qismi investitsiyalarni asosan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirmoqda. Tijorat banklari orqali berilayotgan kreditlar hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, garov ta'minoti va kredit shartlarining murakkabligi ko'plab kichik tadbirkorlar uchun to'siq bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tajribada esa qishloq xo'jaligi kichik biznesini rivojlantirishda davlat kafolatlari va subsidiyalangan kreditlar muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qishloq xo'jaligida kichik biznes iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda muhim o'rin egallagan bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Ayniqsa, kooperatsiyani rivojlantirish, qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirish va kichik biznesni eksportga yo'naltirish orqali ushbu sohaning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin.

## 1-jadval

## Ayrim davlatlarda agrar mahsulotlar eksporti (2024-yil)

№	Davlat / Mintaqa	Agrar eksport qiymati (2024)	Qisqacha izoh
1	AQSh (United States)	≈ \$176,0 mlrd	Dunyoning eng katta agrar eksportchisi bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 189 davlatga eksport qilindi
2	Yevropa Ittifoqi (EU)	≈ 235,4 mlrd yevro	Qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksport qilingan EK hujjatlariga ko'ra umumiy eksport hajmi yuqori
3	Braziliya (Brazil)	≈ \$160+ mlrd (tax.)	Global soya, shakar va hayvon mahsulotlari eksportida yetakchi (tahliliy manbalar bo'yicha)
4	Hindiston (India)	nisbatan yuqoriga yo'naltirilgan \$100 mlrd maqsad	Agrar + oziq-ovqat eksportini \$100 mlrd atrofida oshirish istiqbollari qayd etilgan
5	O'zbekiston	≈ \$0,5–0,6 mlrd	Asosan xomashyo yoki kam qayta ishlangan mahsulotlar eksporti (milliy iqtisodiy statistik tahlilga asoslangan)

*Manba:* muallif ishlanmasi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy rolini baholash davomida, mamlakat eksport salohiyatining global miqyos bilan solishtirishi muhim natija sifatida ajralib turadi. Boshqa tomondan, dunyodagi yetakchi agrar eksportchi davlatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish salohiyati ancha yuqori. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari 2024-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini taxminan \$176 milliard miqdorida eksport qilgan, bu ko'rsatkich 189 mamlakat va hududlarga yetkazilganligini ko'rsatadi. Bu esa Amerikaning global agrar eksportda yetakchi mavqega ega ekanini bildiradi (fb.org, n.d.).

1-advaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning agrar eksporti qiymati global yetakchi eksportchi davlatlarga nisbatan ancha past. Masalan, AQShning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti \$176 milliarddan oshib, butun dunyo bo'ylab eksportni amalga oshirgan, bu esa O'zbekiston eksporti qiymatining yakka tartibda yuzlab barobar yuqoriligini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi esa umumiy agrar eksportni €235,4 mlrd darajasiga yetkazgan bo'lib, qayta ishlangan mahsulotlarda yuqori qo'shilgan qiymatni eksport qilmoqda (EU, 2024). 2024-yilda Braziliya agrar eksporti \$164,37 mlrd ga yetgan. Braziliya asosan soya, shakar va hayvon mahsulotlari eksportida yetakchi bo'lib, agrar tarmoqni tamoyil asosida global miqyosda yetakchi davlatga aylantirgan (tradeint.com, n.d.).

Hindistonning iqtisodiy statistikasida agrar va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti kombinatsiyalangan holda \$100 mlrd atrofida ekanligi ta'kidlangan, bu esa agrar savdo salohiyatining yanada kengayishidan darak beradi (Survey, 2026).

Ayni paytda O'zbekiston agrar eksportining past darajada bo'lishi bir necha omillarga bog'liq: ishlab chiqarishning aksariyat qismining ichki bozorga yo'naltirilganligi, qayta ishlash darajasining pastligi, logistika va bozorlarga chiqish mexanizmlarining rivojlanmaganligi.

Shu bois qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarini eksport faoliyatiga keng jalb etish, yetishtirilayotgan mahsulotlarni chuqur va qo'shimcha qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining ustuvor va uzviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining asosiy qismi aynan kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatib, ularning aholi bandligini ta'minlash va daromadlarni oshirishdagi rolini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan tashkiliy-huquqiy islohotlar kichik biznes faoliyati uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qilgan. Umuman olganda, huquqiy va institutsional asoslar kichik biznesning o'sishi va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq xalqaro solishtirma tahlil natijalari O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksport salohiyati jahonning yetakchi agrar eksportchi davlatlariga nisbatan past darajada ekanligini ko'rsatdi. Masalan, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Braziliya kabi mamlakatlarda agrar eksport hajmi yuzlab milliard AQSH dollarini tashkil etayotgan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich ancha past darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat qishloq xo'jaligida kichik biznesning eksportga yo'naltirilgan faoliyati yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, agrar eksport hajmining pastligi, asosan, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash darajasining yetarli emasligi, logistika va saqlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi hamda kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish mexanizmlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

Yuqoridagi tahlil va xulosalarga tayangan holda, qishloq xo'jaligi sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan quyidagi iqtisodiy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Kichik biznes subyektlari uchun agrar mahsulotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan imtiyozli kreditlar va davlat kafolatlarini kengaytirish;
  2. Qishloq hududlarida saqlash, qadoqlash va logistika infratuzilmasini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish;
  3. Kichik biznes subyektlarini kooperatsiya asosida birlashtirish orqali ularning eksport salohiyatini oshirish;
  4. Xalqaro bozor talablariga mos sertifikatlash va standartlashtirish tizimini soddalashtirish;
  5. Eksportga yo'naltirilgan kichik biznes faoliyatini rag'batlantirish uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kuchaytirish.
- Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligida kichik biznesni rivojlantirish uchun yetarli tashkiliy-huquqiy baza shakllangan bo'lib, ushbu imkoniyatlardan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanish orqali sohaning eksport salohiyatini yuksaltirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlash mumkin.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

- Abdulxakimov S.N. (2024) Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, noyabr*, pp. 28–34. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/387048702>
- American Farm Bureau Federation (n.d.) *Agricultural Exports 101*. Available at: <https://www.fb.org/market-intel/agricultural-exports-101>
- Astanaev Q.S. (2024) O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda asosiy muammolar va ularni yechimi. *Ekonomika i sotsium*, 12(127)-1, pp. 73–74. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-kichik-va-o-rta-biznesni-rivojlantirishda-asosiy-muammolar-va-ularni-yeshimi>
- Economic Times (2026) *India could reach \$100 billion in combined agri, marine, food exports in four years: Eco Survey 2026*. Available at: <https://economictimes.indiatimes.com/small-biz/trade/exports/insights/india-could-reach-100-billion>
- European Commission (2025) *EU agri-food exports reach record levels of €235.4 billion in 2024*. Available at: [https://agriculture.ec.europa.eu/media/news/eu-agri-food-exports-reach-record-levels-eu2354-billion-2024-2025-04-08\\_en](https://agriculture.ec.europa.eu/media/news/eu-agri-food-exports-reach-record-levels-eu2354-billion-2024-2025-04-08_en)
- Ishmuratova G.D. (n.d.) *Qishloq xo'jaligida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish yo'llari*. Available at: <https://scientific-jl.com/mod/article/view/6761/6505>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2011) *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmon*. Toshkent. Available at: <https://lex.uz/acts/-1856013>
- O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023) *Qishloq xo'jaligida kichik tadbirkorlik (biznes)ning asosiy ko'rsatkichlari*. Rasmiy statistik axborot. Available at: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/38368>
- ResearchGate (n.d.) *Organisational and economic support for the development of business enterprises in agriculture under martial law*. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/381197551>
- Trade Intelligence (2025) *Brazil Agricultural Exports 2025 & Key Insights*. Available at: <https://tradeint.com/insights/brazil-agricultural-exports-2025-key-insights>